



MAMLAKATIMIZDA TARIF PREFERENSIYALARNI QO‘LLASHNING TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.

*Alimuxamedov Shuxrat Rixsibayevich. O‘zbekiston
Respublikasi Bojxona instituti Bojxona to‘lovlari va statistikasi
kafedrası boshlig‘i.*

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida tarif preferensiyalar tizimini qo‘llash amaliyoti tahlil qilinadi hamda uni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab beriladi. Xususan, preferensial savdo bitimlari, erkin savdo zonalari va rivojlanayotgan davlatlarga berilayotgan imtiyozlarning milliy iqtisodiyotga ta‘siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tarif preferensiyalarni qo‘llashda yuzaga kelayotgan muammolar, xalqaro tajriba asosida ularni bartaraf etish mexanizmlari hamda bojxona-ma‘muriyatchiligi jarayonlarida raqamlashtirishning o‘rni yoritilgan. Tadqiqot yakunida mamlakat eksport salohiyatini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish orqali tarif preferensiyalar samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tarif preferensiyalari, bojxona imtiyozlari, eksportni rag‘batlantirish, import tartib-taomillari, bojxona to‘lovlari, erkin savdo bitimlari, savdo siyosati, preferensial rejimlar, iqtisodiy integratsiya, tashqi savdo, bojxona siyosati, iqtisodiy manfaatlar, savdo erkinligi.

O‘zbekiston Respublikasida ham tashqi savdoni liberallashtirish hamda investitsiyalar oqimini kuchaytirish borasida bir qator ishlar olib borilayotganini e‘tirof etish lozim. JST xalqaro savdoni liberallashtirish, savdo va siyosiy munosabatlarni tartibga solish bilan shug‘ullanadigan hukumatlararo tashkilot ekanligini hisobga olgan holda 2020-yil 7-iyulda O‘zbekistonning Jahon savdo



tashkilotiga a'zo bo'lishi bo'yicha qo'shma ishchi guruhning yig'ilishlari qayta tiklandi. 2021-yil fevral oyida O'zbekiston savdoni liberallashtirish global dasturining ilk hujjatlari imzolandi. Mazkur dastur JST tomonidan tashqi savdo sohasida yuksak salohiyatga ega bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar faoliyatini xalqaro savdo sohasidagi standartlarga muvofiqlashtirish hamda eksport, import va tijorat tovarlarining harakatlanishi sohasida tajribalarini oshirishga qaratilgan. Hujjat Shveysariya Konfederatsiyasi tomonidan moliyalashtiriladi.

JSTga to'la huquqli a'zo sifatida kirish xalqaro savdo tizimi va jahon iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvning kalitidir. JSTga a'zo bo'lish a'zo bo'lgan davlat uchun JSTga a'zo davlatlar o'rtasida kamsitilmaydigan va adolatli savdoni ta'minlash, tariflarni himoya qilishning maksimal darajasi va import kvotalari bekor qilinishi, mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun tovarlarni arzon narxlarda import qilish kabi muhim afzalliklarga ega. Bundan tashqari, ishlab chiqarilgan mahsulotlar, xususiyl sektorini zararli savdo faoliyatidan himoya qilishda ko'maklashish, mamlakatning savdo bilan bog'liq institutlarini mustahkamlash va huquqiy va institutsional siyosatni tartibga solishga ko'maklashish, xalqaro savdo muzokaralarida faol ishtirok etish va xalqaro miqyosda normalar ishlab chiqish orqali uning manfaatlarini himoya qilish ham tashkilotning muhim afzalliklaridan hisoblanadi. JSTga a'zo bo'lish ko'plab afzalliklarga ega bo'lsa-da, u qo'shilish jarayonidagi bir qator majburiyatlarni ham keltirib chiqaradi. Bu keng ko'lamli qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi harakatlarni o'z ichiga olgan uzoq va murakkab muzokaralar jarayoni bo'lib, keng ko'lamli inson resurslari va institutsional salohiyatni, shu jumladan sanoat tajribasini talab qiladi. Yangi a'zolikka qabul qilishda barcha a'zo davlatlar shartlarga rozi bo'lishlari kerak va bu a'zolardan iborat ishchi guruhini tuzish va muzokaralar jarayoni orqali amalga oshiriladi. Ishchi guruh tuzilgandan so'ng parallel ravishda ikki tomonlama, ko'p tomonlama va turli tomonlama muzokaralar olib boriladi. Ushbu muzokaralarning muvaffaqiyatli yakunlanishi qo'shilish bo'yicha ishchi



guruh tomonidan qabul qilinishi va JST Bosh kengashi yoki Vazirlar konferensiyasi tomonidan ma'qullanishi kerak bo'lgan qo'shilish jarayonidan iborat. O'zbekistonning ushbu tashkilotga a'zo bo'lishi yuzasidan ko'plab milliy hamda jahon iqtisodchi olimlari o'z fikrlarini bildirib o'tishdi. Xususan, amerikalik konsultant, AQSH Savdo vakolatxonasi (USTR) va Qo'shma Shtatlarning Jahon Savdo Tashkilotidagi missiyasida uzoq yillar mas'ul lavozimlarda ishlagan Mark Linskott JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun nega kerakligiga uchta sababni aytdi.

Birinchidan, jahonda JSTga kirmagan davlatlar juda kam qolgan. Markaziy Osiyodan faqat Turkmaniston va O'zbekiston hozircha tashkilot a'zosi emas.

Ikkinchidan, O'zbekiston xorijdan investitsiya jalb etishga, o'z mintaqasidan tashqari hududlarda ham savdo aloqalarini o'stirishga katta e'tibor qaratmoqda. JSTga a'zolik O'zbekistonga kirayotgan investorlar va mamlakatning savdo hamkorlariga kafolatlar va oshkoralikni taqdim etadi.

Uchinchidan, JSTga a'zo bo'lish O'zbekistonga boshqa davlatlarning o'ziga aloqador tijoriy qarorlari ustidan (masalan, chegara va bojlar masalasida) shikoyat qilish imkonini beradi. Misol uchun, Antigua va Barbuda JST orqali AQSHning savdo cheklovlariga qarshi chiqqandi. Yoki Markaziy Amerika mamlakatlari Yevropa davlatlari tomonidan banan importiga joriy etilgan cheklovlarning bekor qilinishiga erishishgan edi. Qolaversa, O'zbekiston JSTga qo'shib, uning to'laqonli a'zosi sifatida xalqaro savdo qoidalarini ishlab chiqishda qatnashish imkoniga ega bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, Jahon Savdo Tashkilotiga asos solingan 1995-yildan buyon hali birorta davlat undan chiqib ketmagan.

O'zbekiston bojxona tartib - taomillarini JST talablariga muvofiqlashtirish yo'lida quyidagi asosiy to'rtta yo'nalishni amalga oshirishi lozim.

- ✓ Tovar bozoriga kirish
- ✓ Qishloq xo'jaligi sohasidagi majburiyatlar
- ✓ Xizmatlar bozoriga kirish



✓ Tizimlar masalalari bo'yicha masalalar

O'zbekiston uchun JSTga a'zo bo'lishda iqtisodiy siyosatning asosiy masalalari quyidagilardan iborat.

1. Kerakli tarkibiy islohotlarni qanday amalga oshirish kerak? Samaradorlikni qanday oshirish mumkin?

2. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan qishloq xo'jaligini qanchalik qo'llab-quvvatlash kerak?

Dastavval, JST ning qishloq xo'jaligi savdosida tartibga soluvchi asosiy prinsiplari to'g'risida to'xtalib o'tsak:

Urugvay raundidagi muzokaralar (1986-1994) natijasida qishloq xo'jaligiga xos bo'lgan birinchi keng qamrovli ko'p tomonlama savdo qoidalari to'plami paydo bo'ldi, ular quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

➤ Qishloq xo'jaligi to'g'risidagi bitim (bundan keying o'rinlarda, Bitim) yangi tarif cheklovlari va subsidiyalarga o'tish jadvallari yoki JST a'zolari tomonidan tariflar bo'yicha cheklovlarni belgilash bo'yicha majburiyatlar ro'yxati;

➤ Sanitariya va fitosanitariya choralari to'g'risida shartnoma.

Bu bitim bozorlarni adolatli va raqobatbardosh qilish uchun subsidiyalar va savdo to'siqlarini qisqartirishni nazarda tutdi. Shuningdek, u a'zolarga oziq-ovqat xavfsizligi va atrof-muhit kabi muammolarni hisobga olgan holda keyingi islohotlar uchun muzokaralarni davom ettirishni ta'minladi. Bundan tashqari, 1995-yildan keyin qo'shilgan a'zolar uchun "Qo'shilish bayonnomasi" huquqiy jihatdan majburiy bo'lgan hujjat mavjud bo'lib, unda JSTning yangi a'zosiga nisbatan qo'llaniladigan qonuniy majburiy qoidalar mavjud.


Bitimning asosiy talablari.

"Qishloq xo'jaligi mahsuloti" atamasi uchun aniq ta'rif berilmagan. Buning o'rniga, Bitimning 1-ilovasida uyg'unlashtirilgan tizim bo'yicha 1-24 guruhlardagi qamrab olingan mahsulotlar ro'yxati, shuningdek baliq va baliq mahsulotlaridan tashqari o'n uchta boshqa toifalar keltirilgan. Shunday qilib, Bitim nafaqat



bug‘doy, sut va tirik hayvonlar kabi asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, balki non, sariyog‘, pishloq, shokolad, kolbasa, sharob va spirtli ichimliklar kabi yuqori darajada qayta ishlangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ham qamrab oladi. Bundan tashqari, qamrab olingan mahsulotlar ro‘yxati xom ipak, paxta, zig‘ir va to‘qimachilik ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan shunga o‘xshash materiallarga nisbatan qo‘llaniladi. Boshqa tomondan, ko‘plab mamlakatlar uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining muhim toifalari bo‘lishiga qaramay, nafaqat baliq va baliq mahsulotlari, balki o‘rmon mahsulotlari va kauchuk ham Bitimning qamrovidan chiqarib tashlanadi.

Shuningdek, ushbu Bitim asosan **“uch ustun”** deb ataladigan uchta sohada bir qator umumiy qoidalar va majburiyatlarni belgilaydi.



Bozorga kirish - importga turli xil savdo cheklovlari;

Ichki yordam - qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxini oshiradigan va (yoki) fermerlarning daromadlarini kafolatlaydigan subsidiyalar va boshqa dasturlar;

Eksport raqobati - eksport subsidiyalari va eksportni sun‘iy raqobatbardosh qilish uchun qo‘llaniladigan boshqa usullar.

Bitimning JSTning boshqa shartnomalari hamda a‘loqalari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tsak, JSTning barcha mavjud qoidalari ushbu bitimda mujassamlashgan. Xususan, Savdo va tarif bo‘yicha bosh kelishuv, sanitariya va fitosanitariya



bo'yicha bitim, bojxona qiymati, import litsenziyasi, yuklovdan oldingi tekshiruv, Himoya chocharalari, markirovkalsh jarayonidagi talablar shular jumlasidandir.

Qishloq xo'jaligi bozoriga kirish

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozorga kirishini yaxshilash Punta del Este (Meksika) deklaratsiyasida va bitimda ko'rib chiqilgan birinchi masala edi. Deklaratsiyaga ko'ra, faqat tariflarga asoslangan GATT tamoyili qishloq xo'jaligi mahsulotlariga mohiyatan barcha notarif choralari (qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozorga chiqishiga to'sqinlik qiluvchi) tarif choralariga aylantirish yo'li bilan tatbiq etiladi. Bitimning 4.2-moddasiga binoan ilgari qishloq xo'jaligi tovarlari uchun qo'llanilgan bir qator notarif choralari ta'qiqlanadi. Bunga quyidagilar kiradi: ***kvotalar va importni ta'qiqlash, turli import bojlari, minimal import narxi, ixtiyoriy eksport cheklovlari to'g'risidagi bitimlar, davlat kompaniyalari orqali amalga oshiriladigan tarifsiz to'siqlar***. Bitim import cheklovlarining barcha tarifsiz shakllarini ta'qiqlamaydi. Mamlakat uchun mavjud bo'lgan chora-tadbirlar, agar ular GATT yoki barcha tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan boshqa JST kelishuvlari mezonlariga javob bersa, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ To'lov balansi muammosini hal qilish uchun importni cheklash;
- ✓ Umumiy himoya choralari;
- ✓ Umumiy istisnolar (masalan, jamoat axloqi, resurslar va insonni muhofaza qilish, hayvonlar va o'simliklarning hayoti va salomatligi);
- ✓ Oziq-ovqat xavfsizligi, hayvonlar xavfsizligi va o'simliklar salomatligi bilan bog'liq SPS shartnomasida nazarda tutilgan sanitariya va fitosanitariya choralari;
- ✓ Mahsulot standartlari, texnik reglamentlar va markalash kabi savdodagi texnik to'siqlar;
- ✓ qishloq xo'jaligiga xos bo'lmagan JSTning umumiy qoidalarida nazarda tutilgan boshqa chora-tadbirlar.



Tarif kvotasi - Tarif kvotasidan foydalanish deganda, kvota doirasida olib kiriladigan tovarlar miqdoridan faqat past stavka bo'yicha boj undirilishi yoki umuman soliq solinmasligi, kvotada belgilangan miqdordan ortiq olib kirilgan tovarlar esa yuqoriroq stavka bo'yicha soliqqa tortilishi tushuniladi. Hozirgi vaqtda JST doirasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari faqat tariflar bilan himoyalangan. Ba'zi hollarda hisoblangan ekvivalent tariflar import uchun har qanday real imkoniyatni ta'minlash uchun juda yuqori bo'lgan. Shunday qilib, importga kirishning mavjud darajasini saqlab qolish va minimal kirish imkoniyatlarini ta'minlash uchun tarif kvotalari tizimi yaratildi.

JST qoidalariga binoan qishloq xo'jaligini subsidiyalashni butunlay bekor qilishni nazarda tutmaydi biroq uning maksimal chegarasini qonunga muvofiq belgilab berilishi nazarda tutadi. Qishloq xo'jaligini ichki davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarurati raqobatbardoshlikning zaiflashuvi va mahalliy ishlab chiqarishning qisqarishi, qishloq xo'jaligida import qilinadigan mahsulotlar ulushining oshishiga olib kelishi bilan bog'liq. Oqibatda, mamlakatning oziq-ovqat balansida muvozanat yo'qolishiga olib keladi, oziq-ovqat xavfsizligi darajasini oshiradi va ijtimoiy-iqtisodiy zarbalar xavfini keltirib chiqaradi. JST muzokaralari davomida ushbu xavflarni kamaytirish asosiy vazifalardan deb belgilandi hamda kerakli yechimlar topildi.

JST terminologiyasida ichki qo'llab quvvatlash tartibga solingan. Ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari 3 xil rangdagi savatchalarga ajratiladi, Yashil savatcha (ruxsat berilgan), sariq savatcha (kamaytirilishi ko'zda tutilgan), qizil (ta'qiqlangan). Qishloq xo'jaligi shartnomasida qizil savatcha hali joriy etilmagan, biroq sariq savatchadagi kamaytirish majburiyatlari darajasidan oshib ketgan ichki yordam ta'qiqlangan. Shuningdek, ishlab chiqarishni cheklaydigan dasturlarga bog'langan subsidiyalar uchun ko'k quti mavjud.

Yashil savatcha.



JST qoidalariga ko'ra, yashil qutini qo'llab-quvvatlash choralariga hech qanday cheklovlarsiz ruxsat beriladi. U ikkita keng toifani qamrab oladi: davlat xizmatlari dasturlari va to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar. Umumiy yoki maxsus turdagi chora-tadbirlar mezonlari bitimning 2 – ilovasida keltirilgan.

Sariq savatcha



Bitimning 6-moddasiga ko'ra ko'k va yashil qutilardagilardan tashqari barcha ichki subsidiyalalar uchun belgilangan. Bularga narxlarni qo'llab-quvvatlash choralari yoki ishlab chiqarish miqdori bilan bevosita bog'liq bo'lgan subsidiyalalar kiradi.

Qishloq xo'jaligi maxsulotlari qiymatining ulushi sifatida belgilangan mahsulotga xos bo'lgan va mahsulotga xos bo'lmagan qo'llab-quvvatlash uchun "de minimis" minimal qo'llab-quvvatlashlariga ruxsat beriladi. Bu chegara odatda rivojlangan mamlakatlar uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymatining 5% ni, ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun 10% ni tashkil qiladi – istisno sifatida aytish joizki, ba'zi JST a'zolari JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralar olib borishda boshqa darajaga kelishib olishgan. Bundan tashqari, Urugvay raundidan keyingi islohotlar davri boshida de minimis darajasidan kattaroq



subsidiyalarga ega bo'lgan 32 JST a'zosi ushbu qo'llab-quvvatlash darajasini pasaytirish majburiyatini oldi.

Sariq savatchadan foydalanish huquqiga ega mamlaklar quyidagilardan iborat.

Argentina Avstraliya Braziliya Kanada Kolumbiya Kosta-Rika Yevropa Ittifoqi Makedoniya FYR Islandiya Isroil Yaponiya	Iordaniya Koreya Meksika Moldova Chernogoriya Marokash Yangi Zelandiya Norvegiya Papua-Yangi Gvineya Rossiya Federatsiyasi Saudiya Arabistoni	Janubiy Afrika Shveytsariya- Lixtenshteyn Xitoy Taypeyi Tojikiston Tailand Tunis Ukraina AQSH Venesuela Vetnam
--	---	--

Qo'shni mamlakatlar tajribasi

2019-yil oxiriga kelib MDHning Boltiqbo'yi mamlakat bo'lmagan 12 davlatidan 8 tasi JSTga qo'shildi, xususan Qirg'iziston, Gruziya, Moldova, Armaniston, Ukraina, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston va Qozog'iston. Ozarbayjon, Belarus, Turkmaniston va O'zbekiston tashkilotga a'zo bo'lish bo'yicha ishlar olib borishmoqda. Kirish shartlari JST doirasida belgilangan maqsadlarga erishishda muvaffaqiyatning asosiy omili bo'lganligi sababli, ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan MDH mamlakatlari tajribasini o'rganish O'zbekistonga agrar sektorda optimal savdo siyosatini shakllantirish imkonini beradi. A'zo MDH mamlakatlarining qishloq xo'jaligi tovarlari guruhlariga bo'yicha import qilinadigan bojxona to'lovlarining o'rtacha stavkasi 10% dan 14,7% gacha. Qishloq xo'jaligidagi ushbu o'rtacha majburiyatlarni bir qator boshqa JST a'zolari: Xitoy (15,7%), Hindiston (13,1%), Evropa Ittifoqi (13,8%) va AQSH (4,9%) bilan solishtirish mumkin. Qo'shni davlatlarning tarif profillarining O'zbekiston bilan umumiy jihati bor: ichimliklar va tamaki, shakar va qandolat mahsulotlari bilan bir qatorda eng yuqori o'rtacha tariflarga ega. Biroq Tojikiston va O'zbekistonda paxta uchun bojlari yuqori. Sakkiz JST a'zosidan to'rttasi hech qanday tarif kvotalarisiz tarif majburiyatlariga ega. Moldova, Ukraina, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston qishloq xo'jaligida tarif liniyalarining mos ravishda 0,9%, 0,1%, 3,2%



va 2,3% tarif kvotalari qoʻllaydi. JST ga Tojikiston va Qozogʻistondan oldinroq aʻzo boʻlgan MDH davlatlari qishloq xoʻjaligini ichki qoʻllab-quvvatlash uchun rivojlangan davlatlar uchun nazarda tutilgan qoidalarini qoʻllash bilan ushbu tashkilotga aʻzo boʻlgan. Buni hisobga olgan holda, ular "yashil savat" talablarini qoʻllab-quvvatlashni istisno qila olmadilar va "de minimis" minimal darajadan 5% foydalanishdi. Oʻz navbatida, Tojikiston JSTga rivojlanayotgan davlat sifatida qoʻshildi, bu unga maʼlum bir ichki imkoniyatlar taqdim etdi va minimal darajadan 10% foydalanishga imkon berdi. Qozogʻiston uchun "de minimis" darajasi umumiy qishloq xoʻjaligi mahsulotlari umumiy qiymatining 8,5% ni tashkil qiladi. Ushbu mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib shuni taʼkidlash mumkinki, Oʻzbekiston uchun JSTga aʻzo boʻlishda "rivojlanayotgan davlat" maqomini olish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, oʻtkazilgan tahliliy sharh JST doirasida qoʻllaniladigan qishloq xoʻjaligini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashni tartibga solish tamoyillari va qoidalarini tavsiflaydi. Oʻzbekiston uchun qishloq xoʻjaligi sohasining strategik rolini hisobga olgan holda, JSTga aʻzo boʻlishda xorijiy davlatlarning amaliyotini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Mamlakat JSTga aʻzo boʻlganida qishloq xoʻjaligiga tegishli quyidagi asosiy fikrlarni aytish joiz:

- qishloq xoʻjaligini qoʻllab-quvvatlash mexanizmini JST qoidolari va tamoyillari bilan uygʻunlashtirish;
- JST aʻzolidagi "rivojlanayotgan davlat" maqomiga erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Oʻzbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati toʻgʻrisida"gi Qonuni (yangi tahriri). 2018-yil 18-oktyabr. (OʻRQ-502-son Qonuniga muvofiq oʻzgartirishlar kiritilgan).



2. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) O‘zR 06.05.2000. 77-II-con Qonuni bilan tasdiqlangan.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 3-yanvar, O‘RQ 419-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5953-sonli Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF 6003-sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi “Bojxona ma‘muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005 - sonli Farmoni